

## DIPLOMATIK TIL SOHASIDA UCH KOMPONENTLI TERMINOLOGIK BIRIKMALARNING QO‘LLANILISHI

**Isayeva Gulora Faxriddinovna**

O‘zDJTU o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada terminlar, ularning yasash yo‘llari va turlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, diplomatiya sohasida qo‘llaniladigan sohaviy so‘z birikmalari, ya‘ni „*Fachwortverbindungen*“ haqida ma‘lumot beriladi va ikki, uch va undan ortiq komponentli so‘z birikmalari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** terminologiya, sohaviy so‘z birikmalari, so‘z yasash yo‘llari, tilshunoslik, leksik birliklar, diplomatiya, murakkab terminlar.

**Аннотация :** В данной статье рассматриваются термины, способы их образования и типы. Также дается информация о специальной лексике, используемой в дипломатии, то есть «*Fachwortverbindungen*», и анализируется лексика, состоящая из двух, трёх и более компонентов.

**Ключевые слова:** терминология, специальная лексика, способы образования, лингвистика, лексические единицы, дипломатия, сложные термины.

**Annotation:** This article examines terms, their formation methods, and their types. It also provides information on specialized vocabulary used in diplomacy, or "*Fachwortverbindungen*," and analyzes vocabulary consisting of two, three, and more components.

**Keywords:** terminology, specialized vocabulary, formation methods, linguistics, lexical units, diplomacy, compound terms.

So‘nggi yillarda sohaviy tillar va ularning terminologik tizimlari ko‘plab tilshunoslarning alohida e‘tiborini tortmoqda.

Umuman olganda, terminologiyada turli so‘z yasash modellarini o‘rganish muammosi ko‘plab olimlar tomonidan tahlil qilingan. Biroq diplomatik soha tili nuqtayi nazaridan bu masala hali yetarlicha o‘rganilmagan.

Yagona so‘zlardan tashkil topgan leksik birliklardan tashqari, diplomatik terminologiyada sohaviy so‘z birikmalari, ya‘ni *Fachwortverbindungen* ham keng tarqalgan. Diplomatik terminologik tizimning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu sohada eng keng tarqalgan terminologik birlik turi — sohaviy so‘z birikmasidir.

Tilshunoslik adabiyotida "*Fachwortverbindungen*" atamasidan tashqari yana boshqa nomlanishlar ham uchraydi: terminologik so‘z birikmalari, murakkab terminlar, terminologik konstruksiyalar, terminologik komplekslar. Biz esa bu ishda "sohaviy so‘z birikmasi" atamasidan foydalanamiz.

Sohaviy soʻz birikmasi deganda bir yoki bir necha soʻzning grammatik birikmasi tushuniladi, u muayyan maxsus tushunchani nomlash vositasi boʻlib xizmat qiladi.

Murakkab sohaviy soʻzlarning tasnifi ularning tuzilishiga koʻra, turli komponentlar sonidan iborat terminlarni farqlash imkonini beradi. Shu sababdan biz ularni ikki, uch, toʻrt yoki besh soʻzdan iborat birikmalar deya tasnifladik va quyida uch va undan ortiq komponentli birikmalar haqida fikr yuritamiz.

Uch tarkibli soʻz birikmalari soʻz birikmalari va leksik birliklar orasidagi oʻtish holatidagi birliklar sifatida tasniflanadi. Bunday tasnifning mohiyati shundaki, terminologik birlikning komponentlari oʻrtasidagi sintaktik bogʻlanish ularning maqomini belgilaydi.

Masalan: *Wiederherstellung freundschaftlicher Beziehungen* (doʻstona munosabatlarni tiklash) terminida *freundschaftliche Beziehungen* (doʻstona munosabatlar) asosiy sintagma hisoblanadi, u *Wiederherstellung* (tiklash) orqali semantik jihatdan kengaytiriladi.

Yoki yana bir misol: *Abkommen über technische Hilfe* (texnik yordam toʻgʻrisidagi bitim) terminida esa *technische Hilfe* (texnik yordam) bazaviy sintagma boʻlib, u *Abkommen* (bitim) komponenti yordamida rivojlantiriladi.

Bu misollar shuni koʻrsatadiki, diplomatik til terminologiyasida feʻlga asoslangan koʻp tarkibli terminologik birliklar sintaktik jihatdan barqaror tuzilishga ega, semantik jihatdan esa harakat, jarayon yoki rasmiy amallarni ifodalashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, predloglar yordamida bogʻlangan soʻz birikmalari ham keng qoʻllaniladi: *Salut auf hoher See* – ochiq dengizda salyut berish, *Konferenz am runden Tisch* – dumaloq stol atrofidagi konferensiya, *die Internationale Organisation für Gesundheit* – sogʻliqni saqlash boʻyicha xalqaro tashkilot, *Recht auf Ergreifung des Wortes* – soʻzga chiqish huquqi, *Abstimmung durch Sitzenbleiben* – oʻtirgan holda ovoz berish, *Einwerfen der Stimmzettel in die Wahlurne* – saylov qutisiga byulleten tashlash.

Shuningdek, predlogsiz uch komponentli soʻz birikmalari ham mavjud boʻlib, ular artikllar orqali bogʻlanadi. Predlogsiz uch tarkibli soʻz birikmalari (S + A + S) — yaʼni *ot + sifat + ot* modelidagi terminlar — eng sermahsul (eng koʻp ishlatiladigan) turlar sirasiga kiradi. Masalan:

- *Doyen des diplomatischen Korps* – diplomatik korpus doyeni,
- *Fragen der protokolarischen Rangordnung* – protokol tartibi masalalari,
- *System kollektiver Sicherheit* – kollektiv xavfsizlik tizimi,
- *System vertraglicher Abmachungen* – shartnomaviy kelishuvlar tizimi,
- *Abberufung des diplomatischen Vertreters* – diplomatik vakilni chaqirib olish.

Bu tipdagi S + A + S modelida aniqlovchi komponent ikki soʻzdan tashkil topgan semantik birlikdir. Agar bu birikmalardan sifat (aniqlovchi)ni olib tashlasak, u

holda terminning ma'nosi to'liq bo'lmaydi, aniq emas yoki noto'g'ri talqin etilishi mumkin. Masalan:

- *Doyen des (diplomatischen) Korps* → (*diplomatik*) soʻzini olib tashlaganda maʼnosi noaniqlashadi,
- *Fragen der (protokolarischen) Rangordnung* → protokollar tizimi aniqlanmaydi,
- *System (kollektiver) Sicherheit* → xavfsizlikning turi yoʻqoladi,
- *System (vertraglicher) Abmachungen* → shartnomaviy xususiyat yoʻqoladi,
- *Abberufung des (diplomatischen) Vertreters* → “diplomatik” belgisiz umumiy “vakil” tushunchasiga aylanadi.

Keyingi eng koʻp qoʻllaniladigan tur - bu — S + S + V (ot + ot + feʼl)

koʻrinishidagi birikmalardir. Masalan:

- *die Vollmachten eines Delegierten prüfen* – delegat vakolatlarini tekshirmoq,
- *die Gültigkeit der Ernennung anfechten* – tayinlov haqiqiylikini shubha ostiga olmoq,
- *einer Regierung ein Ultimatum überreichen* – hukumatga ultimatum topshirmoq,
- *die Aufnahme in eine Organisation beantragen* – tashkilotga aʼzo boʻlishni soʻramoq.

Diplomatik til terminologik tizimida yana quyidagi model ham mavjud:

S + S + Präp. + V (ot + ot + predlog + feʼl), masalan:

- *einen Bericht in Umlauf geben* – hisobotni muomalaga kiritmoq,
- *die Unterlagen für eine Sitzung zusammenfassen* – majlis uchun hujjatlarni tayyorlamoq,
- *auf einer schwarzen Liste stehen* – qora roʻyxatda turmoq.

Yuqorida aytib oʻtganimizdek diplomatik til sohasida toʻrt va besh tarkibli terminologik birikmalar ham kuzatiladi, lekin diplomatik terminologiyada toʻrt yoki besh soʻzdan tashkil topgan soʻz birikmalari juda kam uchraydi. Bunday holatning sababi — diplomatik tilda ixchamlik va qisqalikka intilishdir. Chunki termin qancha uzun boʻlsa, uning mazmuni torayadi va qoʻllanish sohasi cheklanadi. Quyida misollar keltiramiz. Toʻrt komponentli soʻz birikmalariga misollar:

- *Nichteinmischung in die inneren Angelegenheiten* – ichki ishlariga aralashmaslik,
- *Antrag auf Aufnahme einer Frage in die Tagesordnung* – kun tartibiga masala kiritish toʻgʻrisidagi taklif,
- *der Vertrag über Freundschaft und gegenseitige Hilfe* – doʻstlik va oʻzaro yordam toʻgʻrisidagi shartnoma,
- *außenordentlicher Gesandter und bevollmächtigter Minister* – favqulodda va muxtor elchi,
- *Protokoll über den Austausch oder die Hinterlegung der Ratifizierungsurkunden* – ratifikatsiya hujjatlarini almashish yoki topshirish toʻgʻrisidagi bayonnoma.

Beshta soʻzdan tarkib topgan soʻz birikmalari:

- *Zeit und Ort der nächsten Sitzung festlegen*  
– keyingi majlisning vaqt va joyini belgilamoq,
- *den internationalen Frieden und die internationale Sicherheit aufrechterhalten*  
– xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlamoq.

Tahlillar shuni koʻrsatdiki, A + S (sifat + ot) modelidagi ikki tarkibli terminologik birikmalar diplomatik til terminologiyasida eng sermahsul hisoblanadi. Ular asosan tur tushunchalarini (Artbegriffe) ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu turdagi terminlarning koʻpligi xalqaro munosabatlar va diplomatik amaliyotning rivojlanishi, yangi tushunchalar va real voqeliklarning paydo boʻlishi bilan chambarchas bogʻliqdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Wüster, E. Die internationale Angleichung der Fachausdrücke / E. Wüster // Elektrotechnische Zeitschrift. — № 16. — S. 550–552.
2. Wüster, E. Die allgemeine Terminologielehre — ein Grenzgebiet zwischen Sprachwissenschaft, Logic, Ontologie, Informatik und Sachwissenschaften / E. Wüster // Linguistics. — 1974. — № 119. — S. 61–106.
3. Handbuch der Terminologie des Völkerrechtes (Friedenrecht) und der internationalen Organisationen / Isaak Paenson. — München — New Providence London — Paris, 1993. — 179 s.
4. Lexikon der Vereinten Nationen / Helmut Volger. — München — Wien — Oldenburg — Verlag, 2000. — 775 s.